



*Özbekistan Cumhuriyetinin
Türk Keneşi'ne Üyeliğine İthafen*

DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI I



CENGİZ AYTMAOV
TÜRK DÜNYASI
ARAŞTIRMA ve UYGULAMA
MERKEZİ



T. C.
Karabük Üniversitesi
Cengiz Aytmatov Türk Dünyası Uygulama ve Araştırma Merkezi

Özbekistan Cumhuriyeti İlimler Akademisi
Ali Şir Nevai Devlet Edebiyat Müzesi

Mukimi Adli Kokand Devlet Pedagoji Enstitüsü

*Özbekistan Cumhuriyetinin Türk Keneşi'ne
Üyeliğine İthafen*

DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI I

Karabük Üniversitesi yayınları: 53

Karabük – 2020

**TURKIYA RESPUBLIKASI KARABUK UNIVERSITETI
CHINGIZ AYTMATOV NOMIDAGI TURK DUNYOSI AMALIYOT VA
TADQIQOT MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI
MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

TIL VA ADABIYOT TADQIQOTLARI I

*O‘zbekiston Respublikasining Turkiy
kengashga a‘zo bo‘lganiga bag‘ishlanadi*

Karabuk Universiteti nashrlari: 53

Karabuk – 2020

Kitabın tüm hakları Karabük Üniversitesine aittir.

Karabük Üniversitesi Yayınları-53

Yayına hazırlayan:

Prof. Dr. Nadirhan HASAN

Editör:

Dr. Öğr. Üyesi Saidbek BOLTABAYEV

Tashih:

Naima ALIKULOVA

BİLİM KURULU

Prof.Dr. Nasimhan Rahmanov (Özbekistan)	Doç.Dr. Cildiz İsmailova (Türkiye)
Prof.Dr. Kasımcı Sadıkov (Özbekistan)	Doç.Dr. Ziba Kabilova (Özbekistan)
Prof.Dr. İbrahim Hakkul (Özbekistan)	Doç.Dr. Sirderyahan Utanova (Özbekistan)
Prof.Dr. Nadirhan Hasan (Türkiye)	Doç.Dr. Atabek Rustambekov (Özbekistan)
Prof.Dr. Cebbar Eşankulov (Özbekistan)	Dr.Öğr. Üyesi İsmail Taş (Türkiye)
Prof.Dr. Selami Fedakâr (Türkiye)	Dr.Öğr. Üyesi Saidbek Boltabayev (Türkiye)
Prof.Dr. Kudratulla Omonov (Özbekistan)	Dr. Rihsitilla Alimuhamedov (Özbekistan)
Doç.Dr. Enver Kapağan (Türkiye)	Dr. Hülya Uzuntaş (Türkiye)

ISBN 978-605-9554-48-0

Her hakkı mahfuzdur. Bu makaleler kitabında yayımlanan makaleler ve yazılardaki görüş ve düşünceler müelliflerinin görüşleridir. Kitapta yer alan yazıların dil, üslup ve bilimsel mesuliyeti yazarlarına aittir.

Sevara XUDOYBERDIYEVA	TERMIN VA TERMINOLOGIYA TADQIQI XUSUSIDA.....	337
Saodat ASHUROVA, Dilshod ABDULLAYEV	MATN TAHLILIDA SO‘Z BIRIKMALARI MODELLARINING O‘RNI.....	350
Azimjon HAMIDOV	NAVOIYNING "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONIDAGI MAHOBATLI TUN TASVIRIDA TAMSIILNING QO‘LLANILISHI.....	355
Tursunoy YANDASHOVA	O‘ZBEK TILIDA “GO‘ZALLIK” KONSEPTI.....	361
Umida YUSUBOVA	O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI MUSHTARAK TURKCHA LEKSEMALAR.....	367
D.S. YUSUPOVA	MAROSIM FOLKLORIDA DINIY QARASHLAR.....	372
Nafosat O‘ROQOVA	SO‘NGGI DAVR O‘ZBEK DOSTONLARIDA RUHIYAT TALQINI.....	377
Nasiba ESHONQULOVA	BOSH QAHRAMON OBRAZINI YARATISHDA JEK LONDONNING ADABIY MAHORATI.....	383
Sarvinoz ESHIMOVA	ISAJON SULTON HIKOYALARINING QIYOSIY TAHLILI.....	389
Durdona BULTAKOVA	O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI TAXALLUSLARNING ATALISH MOTIVLARI.....	396
Mehriniso CHORIYEVA	ABDURAHMON TAMKIN HAYOTI VA IJODIY MEROSI HAQIDA.....	400

ABDURRAHMAN TEMKIN'İN HAYATI VE ESERLERİ

ABDURAHMON TAMKIN HAYOTI VA IJODIY MEROSI HAQIDA

Mehriniso CHORIYEVA*

Özet: Makalede 19. Yüzyılın sonu ve 20. Yüzyılın başlarında yaşayan ve çok sayıda önemli eserler kaleme alan, güçlü şair ve yaşadığı çağının tanınmış bilginlerinden biri olan Abdurrahman Temkin'in hayatı ve edebi mirası çalışmada söz konusu olmuştur.

Anahtar kelimeler: tezkire, Abdurrahman Temkin, Molla Abduhalik, Buhara medreseleri, kaside, gazel.

Annotatsiya: Mazkur maqola XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab, ijod etgan sermahsul ijod namoyandasi, zabardast shoir va zamonasining peshqadam olimlaridan biri Abdurahmon Tamkinning hayoti hamda adabiy merosi haqidadir.

Tayanch so'zlar: Abdurahmon Tamkin, XIX asr oxiri, XX asr boshlari, tazkiralari, Mulla Abduxoliq, Buxoro madrasalari, qasida, g'azal.

O'zbek xalqi g'oyatda boy adabiyot tarixiga va boy adabiy merosga ega. O'rta Osiyolik boshqa qardosh xalqlar qatori o'zbek xalqi ham juda qadimdan ko'plab moddiy va ma'naviy boyliklar yaratib, insoniyatning madaniy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan.

O'tmishning buyuk va fozil kishilari biz uchun juda boy meros qoldirganlar. Chunonchi, Sa'diy, Lutfiy, Navoiy, Hofiz, Bedil, Mashrab, Ravnaq, Raqim, Nishotiy, Mujrim, Shavqiy, Xironiy, Imlo, Vola, Vali, Nadim, Naqis, Miriy, Ahqor, Hoziq, Zavqiy, Shavqiy, Tabibiy va Avazlar o'tkanlarkim, ularning ayrimlari hali hanuz xalqimiz uchun ochilmagan xazinadir.

Bugungi davr talabiga quloq tutadigan bilsak, biz o'z munosib bahosini kutib yotgan buyuk ajdodlarimiz qoldirgan adabiy xazinani xalqimizga, elimizga,

* Buhara Devlet Üniversitesi araştırmacısı
Buxoro davlat universiteti izlanuvchisi

qolaversa, yoshlarimizga yetkazib berishimiz lozim. Ana shunday sohir qalb egalaridan biri Abdurahmon Tamkindir. U XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab, ijod etgan sermahsul ijod namoyandasi, zabardast shoir va zamonasining peshqadam olimlaridan edi.

Tamkin ijodini o'rganish uchun quyidagi 3 manbani nazardan o'tkazish lozim :

- 1)XIX asrda yaratilgan tazkiralar
- 2)Tamkinning o'z asarlari
- 3)shogirdlari yozib qoldirgan xotiralar

Birinchi manbaga diqqat qaratadigan bo'lsak, XIX asrda yashab o'tgan Afzal Maxdumi Pirmastiy va Xoja Ne'matillo Muhtaram kabi tazkiranavislarning asarlarida buxorolik zullisonayn shoir Tamkin haqida mavhum ma'lumotlar uchraydi, - deb yozadi Asqar Jon Fido.

Darhaqiqat, ushbu tazkiralar Tamkin haqida aniq ma'lumot bera olmaydi. Chunki o'zbek adabiyotida Tamkin ijodi hali o'rganilmagan, imkon qadar shu masalaga yechim berishga harakat qilamiz.

Ikkinchi manba Tamkin asarlariga murojaat etsak, ular shoir o'zi haqida ayrim ishoralar qilgan. Ana shu ishoralarni diqqat markazimizda saqlab, shoirning shogirdlari xotirasini varaqlasak, o'xshashlik va yaqinlikni uchratamiz. Ushbu muvofiqlik tufayli shoirning hayoti va ijodi haqida aniqlikka erishish mumkin.

A.Tamkinning hayoti va ijodi haqida aytilgan har xil fikrlarga chek qo'yishda shoirning shogirdi Ja'farovning xizmati katta bo'ldi.

Ja'farovning yozilmalarida; "Dar sanayi 1905 melodi (barobari 1322 hijriy)baroi tahsili ulum ozimi Buxoro gardida ...dar hovli Hoja Maxdum sokin gardidam.Alassaboh bo Hoji Maxdum ba hovli domullo Abdurahmon Tamkin raftem. Domullo bisyor odami xokisor va halim bud. Sinni sharifi eshon kabir boi panjohu se rasida bud..."-degan fikrlar uchraydi. Bu ma'lumotdan shu narsa aniq bo'ladiki, agar shoir 1905-yil 53 yoshda bo'lsa, demak u 1851-1852-yillar atrofida Buxoro shahridagi Bo'yrabofi dahasida tavallud topgan. Otasi Mulla Abduxoliq degan kishi bo'lgan. Tamkinning umri Buxoroda o'tgan. U Buxoro

madrasalarida tahsil olgan va ona shahrida yashab, ilm o'rganganidan g'oyatda mamnun bo'lgan hamda tinch–osuda hayotini quyidagicha ifodalagan:

Bihisht joi tu, Tamkin chi joi reb dar o'

Ki monda bog'chaye yodgor az padar ast.

Tarjimasi: Jannat joying sening Tamkin, eshiging jannat eshigi,

Shu joydagi bog' otangdan yodgordir.

Tamkin Buxorodagi “Dorushshifo” madrasasida dars bergan. Shoir asarlaridan ma'lum bo'ladiki, mudarris bo'lganiga qadar imom bo'lgan va davlat ishlarida ishlagan.

Bu haqida shoir o'zining “Mo'liston” asarining muqaddima qismida ishora qilib o'tadi: “Mo'liston” 17 baytdan iborat, u Buxoro amiri Abdulahadxonga madhiya tarzida bitilgan bo'lib, qit'a janrida yozilgan. Yoki Tamkinning yana bir madhiyasi ham Abdulahadxonga bag'ishlangan. U xonni –Chunin shohi dilosoyu dilorom- deb ko'klarga ko'taradi. Bu asar 71 baytdan iborat bo'lib, “Ganji shoygon” (“Shohlar duri”) deb nomlangan. U masnaviyda yozilgan, tarkibida uchta ruboyi ham uchraydi.

Tamkinning adabiy merosi boy va sermahsuldir. U barcha janrlarda ijod qilgan. Chunonchi qasida, g'azal, muxammas, qit'a, fard, chiston, muammo va hajv kabi janrlarda barakali ijod qilgan. Uning aksariyat asarlari tojik tilida yozilgan, biroq uning o'zbek va arab tillarida yozilgan ayrim she'rlari ham borki, bular Tamkin har uchala tilni ham mukammal bilganligidan dalolat beradi.

Shoirdan juda boy adabiy meros qolgan. Uning devoni 6764 misra bo'lib, shundan 356 misrasi qasida va 6408 misrasi g'azaldir. “Rubouyot” asarida esa 488 ruboyi, 1468 mufradod, 7 chiston va 6 muammo bor.

Demak, 1851-1852-yillar atrofida tug'ulib, 1915-yilgacha yashab ijod etgan buxorolik shoir Abdurahmon Tamkin hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar va u yaratgan asarlar hali o'zbek adabiyotida mukammal holda o'z xulosasini topgan emas. Shoirning hayot yo'li, u yashagan tarixiy sharoit va adabiy muhit hamda ijodiy olami haqida savollarga javob topib, uni o'quvchiga yetkazish lozim.

XIX oxiri va XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhitining yorqin vakili A.Tamkin ijodi orqali bilish mumkinki, bu davr adabiyoti zullisonayin adabiyot sifatida maktab darajasiga chiqqan desak xato bo'lmas.